



2023-yil. 3-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING |
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

Nasiba Nasrulloeva. Ingliz kompyuter va internet jargonlarining yasalish xususiyatlari	66
Mushtariy Vohidova. Jahon adabiyotshunosligi asarlarining yuksak mafkuraviy-tafakkur yo'nalishi bilan	68
I.S. Qilichev. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida o'qitish mexanizmini takomillashtirish	70
Zohida Tursinova. Maktab ingliz tili o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini baholash	72
Fotima Ismoilova. Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida modernistik ohanglar	73
Maftuna Khasanova. Modern methods of teaching english in higher education institutions	74
Nasiba Mirzayeva. Non-traditional methods in EFL	76
Jayron Radjabova. The role of multilingualism and monolingualism In ESL teaching	78
Roza Turdieva. The role of transformative learning in uzbek higher education system	79
Dilfuza Toshpulatova. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarning mazmuni va uni takomillashtirish jarayoni	81

TILSHUNOSLIK

Arofat Sharipova, Gulchekhra Tursunova. Implementation of the culture-oriented linguistics approach using role-playing games in efl classes	43
Aytkul Djalilova. Translating idioms from english into uzbek	86
Dilafroz Umarova. The role of pragmatic meaning in teaching english	87
Eldorbek Khamitov. Newspaper and magazine headlines	89
Go'zal Maxamatxo'jayeva, Iroda Siddiqova. O'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan va o'zlashayotgan so'zlar haqida ba'zi mulohazalar	91
Kamola Alautdinova. Nutqiy faoliyat muloqot negizi sifatida	93
Odina Arifjanova. Gamification as a tool to improve second language acquisition	95
Sitora Yadigarova. Kiyim nomlarining ingliz tilshunosligida o'rganilishi	96
Mukhlisa Kenjayeva. Types of evaluative adjectives in english and uzbek	97

KICHIK TADQIQOT

Madina Ashirbayeva, Muhabbat Yusupova. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan WebQuest vazifalarini 11-sinf o'quvchilarida qo'llash	99
Eldorjon Shermatov. Elektron platforma xorijiy tillarga o'qitish vositasi sifatida	101
Laylo Alimjanova. Challenges in esp teaching: needs analysis in ESP	104
Mavluda Djurayeva. The choice of language in note-taking	107
Shohida Isakova. "Temur tuzuklari" ning fransuzcha va inglizcha tarjimalarida harbiy terminologiyaning ifodalanishi	110
Zanjiloy Abdusalamova. O'zbekning yuragidan joy olgan rus shoiri Faynberg	112

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Рануша Атаева. Русский язык как средство формирования зунув по специальности	113
Эльдар Гиздулин, Зухридин Нуридинов. Современные информационные технологии – важное средство повышения качества образования	115

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гулчехра Саримсакова. Развитие сравнительно-сопоставительной лингвистики в Узбекистане.....	117
Нилуфар Кахарова, Дилдорахон Хасанова. Синонимия фразеологизмов и другие единицы лексико-сематического уровня	119

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Насиба Хайдарова. Особенности передачи восточного религиозного дискурса в прозе русскоязычных писателей Узбекистана.....	122
---	-----

ПОЛЕМИКА

Махбуба Раимжанова. Современный подход к преподаванию русского языка как иностранного в неязыковом вузе	124
--	-----

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

Дилмура Умарова. Проблемы и перспективы современного урока русского языка в национальных школах	126
--	-----

ОБРАЗОВАНИЕ: ОПЫТ, АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ

Фарида Умарова. О взаимодействии обучающихся и преподавателей в совершенствовании лично-ориентированного обучения в военных вузах	128
--	-----

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Гулжазира Утенбаева. Применение технологии «SMARTEF» при обучении русскому языку будущих офицеров ввоу	131
---	-----

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Индира Наркулова. Работа с песнями как средство мотивации в высших военных образовательных учреждениях.....	133
--	-----

O'zbek tili leksikasining katta qismini o'z qatlam leksemalari tashkil etadi. Lug'at boyligimizdagi forsha-arabcha, shuningdek, ruscha o'zlashma leksemalarning ham miqdori boshqa til o'zlashmalariga qaraganda katta bo'lib, hozirda ularning qatoriga inglizcha o'zlashmalarni ham kiritish mumkin.

Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashma so'z kiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'z izohlangan. Shuningdek, "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati"da 350 dan ortiq so'z, vaqtli matbuotda qo'llanilayotgan neologizmlar, "Inglizcha-o'zbekcharuscha axborot texnologiyalari va Internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" kabi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema o'zlashganini aniq aytish mumkin.

Har bir tilda o'ziga xos o'rinsiz ishlatiladigan o'zga til unsurlari mavjud bo'lib, ular varvarizmlar sifatida izohlanadi. Hozirgi paytda yoshlar nutqida *okey* (*OK – all correct*) – ishlar besh; *vau* (*wow*) – ijobiy ma'nodagi his – hayajon ifodalovchi undov so'z; *o, yiss* (*o, yess*) – tasdiq ma'noni ifodalovchi so'z; *o, best* (*best*) – *ishlar a'lo*; *hello* (*hello*) – *salom*; *bay* (*bye*) – *xayr* kabi ingliz tili ta'sirida o'zlashgan varvarizmlar ham uchrab turadi. Zeroki, so'z o'zlashish jarayoni, o'zga tilning madaniyat, urf-odat, o'ziga xos rasm-rusumlari bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbek tiliga inglizcha o'zlashma so'zlarning o'zlashish yo'llari turlicha yo'sinda bo'ladi. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan o'zbekcha nomlanishga ega bo'lmasa yoki o'zlashma so'z tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan o'zining ijobiy va samarali ta'siriga ega bo'lsa, shundagina to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish yoki aynan o'zlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, *chat* (*chat*) – *suhbat*, *bifshteks* – (*beefsteaks*) – qovurilgan mol go'shti qaylaga solib beriladigan ovqat turi, *mani* (*money*) – *pul*, *boyfrend* (*boyfriend*) – *do'st*, *o'rtiq* kabi so'zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi e'tiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda.

Izoh isboti sifatida E.A'zamovning "Bayramdan boshqa kunlar" qissasidan olingan parchaga e'tibor qaratamiz. Asar qahramonlaridan sanalgan Safuraning tilida parazit so'zlar ko'plab qo'llanishini kuzatish mumkin:

"Umuman, ko'p gapirib og'zini charchatmaydi. Demoqchi bo'lgan fikrini biron bitta alomatiroq so'zga jamlab qo'ya qoladi. Xuddi mashhur "O'n ikki stul" dagi tantiq Ellochkaga o'xshab. Masalan: "bravo", "ujas", "genialno", "shik", "se lya vi", "chi gap", "oybay", "salut",



"chao", "okey" va hokazo. Bu baynalmilal – qurama so'zlarni u doimo xitob bilan, ohangini keltirib talaffuz qiladi. Siz o'zbekcha gapiravering, u ana shu "til"da javob qaytaraveradi. Hello-o! BBlarga (Bakir bilan Bargida demoqchi) salut, deb qiyqiradi u telefondoq: ismlarini to'liq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikkamikin?"

Bu so'zlar, odatda, tushuncha ifodalanishi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda o'z ekvivalentiga ega bo'lsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga, ma'noni tasviriy ifodalashiga ko'ra farqlanadi.

Hozirgi paytda gazeta, jurnal, radio eshittirish va teleko'rsatuvlarda muxlislarni o'ziga jalb etadigan mavzular nomida inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlar bilan bog'liq holatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosiy arboblardan, siyosatchilardan, iqtisodchilardan, jurnalistlardan ham o'zlarining nutqlarida sohalariga mos holatda o'rni bilan inglizcha o'zlashmalarga murojaat qilib turishadi.

Umuman olganda, so'z o'zlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni hisoblanib, o'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq til o'zlashmalari mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilimizga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashishida semantik tuzilishdagi o'zgarishlar ham har xil bo'lgan. Shunga ko'ra, ularni o'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar, so'z ma'nolarining kengayishi, so'z ma'nolarining torayishi, o'zlashmalarining yangi ma'no kasb qilishi kabi til hodisalariga uchragan o'zlashmalar sifatida tasniflab o'rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jomonov R. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2013.
2. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2014.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent, 2010.
4. Superenskaya A.V. O'zlashgan so'zlar va amaliy transkripsiya. – Moskva: Nauka, 2012.

Kamola ALAUDINOVA,
O'zbekiston milliy universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

NUTQIY FAOLIYAT MULOQOT NEGIZI SIFATIDA

Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi bosqichi til birliklarini ma'lum voqelik holatiga muvofiq qo'llanilishini o'rganish, turli vaziyat jarayonlarida so'zlovchining nutqiy muloqot maqsadini hisobga olgan holda tilga antropotsentrik yondashuvning afzalligi bilan tavsiflanadi. Bu kabi tilga oid tadqiqot yo'nalishi tilshunoslik tizimining asosiy birligi sifatida so'zning pragmatik jihatdan o'rganishilishini taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, muloqot mazmuni bilan bog'liq masalalarni o'rganish obyektiga aylangan matn lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy ilmiy paradigmalari muvofiq bir necha yo'nalishda keskin rivojlanayotganiga guvoh bo'lamiz. Matnni o'rganishda muhim bo'lgan bir nechta jihat, jumladan, tarkibiy, kommunikativ va lingvomadaniy yondashuvlar, uning o'ziga xos xususiyatlari va turlari yoritilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, matnda ifodalangan ma'no qirralarini tushunish uchun uni bir qator aspektlar nuqtayi nazaridan o'rganish masadga muvofiqdir.

Nutqiy faoliyatni nafaqat zamonaviy tilshunoslik, balki uning sohalaridan bo'lmish psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik jabhalari uchun ham o'rganish muhim sanaladi. Nutqiy muloqotda qo'llaniladigan ko'plab terminlar ma'nolari pragmalogvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvomadaniyatshunoslik sohalarini nuqtayi nazaridan ham talqin etiladi. Bu kabi tushunchalar qatoriga *diskurs* terminini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Ushbu tushunchaning *tilga* nisbatan keng ma'noga ega bo'lishiga, bu borada ko'plab tadqiqotlarning turli aspektlarda olib borilganligi sabab bo'ldi. A.A.Potebnyaning fikricha, "tilning rivojlanish jarayoni so'zlarda ifoda etilgan poetik va prozaik fikrlarning almashinuvidir". Binobarin, muloqotda fikrning ifoda etilishi ijodiy jarayon bo'lib, predmetning inson ongida turlicha aks etishi sinonim so'zlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bunday jarayon, bir predmetning ma'lum bir tilda turlicha nomlanishi nutq boyishini ta'minlaydi. Aslida, fikrlar mohiyati va ong munosabatlari so'zning ichki shaklini tashkil etadi. So'zlarning paydo bo'lishi, xilma-xilligi predmetning inson tafakkurida qanday namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Bu borada ma'lum bir to'xtamga kelish uchun boshqa tilshunoslik maktablarining ilmiy qarashlariga nazar solsak. Qozon lingvistik maktabi vakili N.V.Krushevskiy nutqning ravonligini ta'minlovchi turli so'z turkumlariga oid har xil ma'nodagi so'zlar izchilligi – "til – ishoralar tizimi [1: 420]" degan g'oyani ilgari surgan. B.N.Golovin esa, "nutq – til qoidalarini hamda ifoda etilgan ma'lumot tablablariga muvofiq qurilgan til ishoralarining izchilligidir", deb ta'kidlaydi [2: 22]. Keyinchalik u, "nutqning tashqi ko'rinishi – matnning qoidaga muvofiqligi; nafaqat til tuzilishi va uning tarkibi, balki tilga oid bo'lmagan ma'no-

larga ham ega" ekanligini ta'kidlab, uni til materiali va unga xos bo'lgan qoidalar asosida qurilgan deb ta'riflaydi [2: 22]. Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash lozimki, F. de Sossyur e'tirof etganidek, nutq yoki nutqiy faoliyat ikki tomondan iborat bo'lib, biri individual, biri esa ijtimoiydir [3: 15]. Demak, diskursni nutqiy faoliyatda fikrlarning ketma-ket vaziyatga muvofiq bayon etilishi bilan bog'liq hodisa deyish mumkin.

Nutqiy faoliyat insoniyatning jamiyatdagi eng asosiy vositalardan biri bo'lib, muloqotning negizi hisoblanadi. U nafaqat nutq tovushlaridan tashkil topgan so'zlar, balki imo-ishoralalar, turli nutq tovushlariga xos bo'lmagan taqildiy tovushlardan ham iborat bo'lishi mumkin.

Nutqiy faoliyat tarixiga nazar solarsak ekanmiz, insoniyatning qadimgi ajdodlari nutqning noverbal shaklidan foydalanishganligiga guvoh bo'lamiz. Bunga qadimgi bitiklar dalil bo'la oladi [4: 35]. L.A.Vvedenskaya hamda P.P.Chervinskiylarning fikriga ko'ra [5: 57], jest, ya'ni imo, ishora ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan yoki biror bir ma'noni anglatishda qo'llanilgan hayvonlar harakatiga taqlid tovush kompleksiga sabab bo'lib, nutqdan oldin paydo bo'lgan [6: 57]. Shu sababli bo'lsa kerak, insoniyat haligacha imo-ishoralardan og'zaki nutq muloqoti jarayonida foydalanib kelmoqda [7: 264].

V.G.Kostomarov va N.D.Burvikova diskursiya (ma'lumotni qabul qiluvchi tafakkurida matnning aks etish jarayoni) bilan diskurs (adresant jo'natgan matn mazmunining qabul qilingan ma'no bilan mos kelishi natijasida xabarni qabul qilish) tushunchalarini bir-biri bilan taqqoslaydi. Ushbu tushuncha mantiqiy-falsafiy an'anaga mos kelib, unga ko'ra, diskursiv va intuitiv, ya'ni, aql-idrok hamda mulohaza yuritish natijasida olingan bilimlar majmuyi sanaladi. Shuningdek, diskurs mantiqiylik, tartibli hamda ifoda etilgan fikrga muvofiqlik kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirib, til haqidagi bilimlarga ega bo'lish bilan birga so'zlarning tuzilishi (til ishoralari) va ularning mantiqiylik xususida ma'lumot beradi. Nutqiy faoliyat tafakkur hosilasidir. Tafakkurgacha bo'lgan daraja esa ko'rgan narsalarni anglash, idrok etish jarayonidir. Bu xususda B.I.Kosovskiy quyidagi fikrni bildiradi: "...nutq va tafakkur o'rtasida oraliq zanjir yo'q. Nutq va tafakkur bu – bir voqeaning ikki tomoni" [6: 57]. Garchi, nutqda o'z aksini topgan fikr bilan onging yashirin munosabati ifodalana- di. Inson ongida yashirin nutq, ya'ni ifodalangan fikr ham mavjud.

L.I.Skvorsovning izohlashicha, "tilning kelajagi bugun, nutqiy vositalarning qo'llanilish jarayonida, jonli muloqotda yaratiladi" [8: 57]. Shu sababli ham lingvistik qarashlar jonli tilning evolutsion mexanizmi muammosi bilan chambarchas bog'liq.

B.I.Kosovskiy nutqiy faoliyatdagi ichki fikrni "yashirin nutq", deb baholaydi [6: 69]. V.Gluxov va V.Kovshikovlar

esa uni “nutqiy faoliyatni xarakterlovchi omil, ya’ni faoliyatning bir formasi”, deb izohlaydi [9: 25]. Yana shuni inobatga olish kerakki, nutqiy faoliyat tilga oid jarayon bo’lib, ma’lum bir vaziyatlarda tilni qo’llay bilish qobiliyatini anglash va, qolaversa, nutq tuzishda zarur bo’lgan inson organizmining psixofiziologik faoliyati majmuyidir. Ma’lumot berish, ya’ni nutqni ifoda etishning o’zi bir nutqiy faoliyat. U inson faoliyatlarining bir shakli bo’lib, insonning muloqot paytida ongli-kommunikativ ehtiyojlarini ta’minlashga yo’naltirilib, til vositasida shakllantirilgan yoki ifodalangan fikrni faol, maqsad hamda faktga asoslangan jarayonda yuborish va qabul qilishni o’zida aks ettiradi. Shunday ekan, nutqiy faoliyat jarayonidan ko’ra bo’lib o’tgan muloqot natijalari muhim rol o’ynaydi. Negaki insoniyat aynan shu natijaga erishish yo’lida muloqotga kirishadi. Muloqot natijasi matnni bir tildan boshqasiga tarjima qilishda juda katta ahamiyatga ega va buning natijasida tarjima jarayoni oson kechadi. Yana shuni inobatga olish kerakki, nutqiy faoliyat ijtimoiy xarakterga ega bo’lib, u ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan holda sharoit tanlovi asosida amalga oshiriladi.

Y.E.Kubryakovaning fikriga ko’ra, nutqiy faoliyat til va nutq uyg’unligida qayd etilgan barcha dialektik ziddiyatlarni bir qatorda birlashtirishi bilan murakkab ta’limdir [10: 11].

Nutqiy faoliyat ikki qismdan iborat bo’lib, birinchisi ichki formada kechadigan jarayonlar, ya’ni ehtiyoj, motiv, maqsad, g’oya, dastur, bilim, vaziyatni har tomonlama o’rganish, fikrni so’zlarda ifodalash yoki ifodalamaslik qarori bo’lsa, ikkinchi shakl tashqi faoliyat bo’lib, ichki qarordan so’nggina amalga oshiriladigan jarayonlar, jumladan, maqsadga muvofiq nutqni so’zlash va unga mos so’zlar tanlovini ta’minlash va boshqalardan iborat. Negaki, u so’zlovchi ijtimoiy hayotining bir qismini tashkil etadi. Nutqda qo’llanilgan til birliklari so’zlovchi haqidagi ma’lumotni o’zida namoyon etadi. Inson ongi muloqot orqali o’sib boradi.

Y.E.Kubryakovaning izohlashicha, “mashhur va rad etib bo’lmaydigan farqlari asoslangan bo’lishiga qaramasdan, nutq va nutqiy faoliyat tushunchalari sinonimlardir” [10: 9]. Nutqiy faoliyat doim nutq strukturasi va normasiga mos ravishda to’liq hamda sarmazmun axborot almashinish jarayoni kommunikativ nuqtayi nazaridan nazorat qilinadi va bu nutq madaniyatining asl mohiyatidir. Nutqning nutqiy jarayonlar bilan har tomonlama bog’liqligi yozma nutq madaniyati shakllanishi va rivojlanishini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.Gluxov nutqiy faoliyatni tashqi og’zaki, tashqi yozma va ichki nutqqa bo’ladi [9: 38]. Tashqi og’zaki nutqda so’zlovchi so’zlarni qanchalik mohirona qo’llamasin, baribir xatolikka yo’l qo’yishi mumkin. Fikrimizni Agata Kristining quyidagi gapi tasdiqlaydi: “uch narsa – vaqt, so’z, imkoniyat hech qachon orqaga qaytmaydi. Shuning uchun vaqtni bekorga sarflama, so’zni to’g’ri tanla va imkoniyatni qo’ldan berma”. Ichki nutq esa faqat shaxsning o’zigagina ma’lum bo’lib qolaveradi. Shunday ekan tashqi yozma nutqning afzallik tomoni ko’proq, masalan: ko’ramiz, yozamiz, eshitamiz va o’qiyamiz.

Ma’lumki, nutqiy faoliyat ikki xil bo’ladi: dialogik va monologik. Yozma nutq o’zining kommunikativ tabiatiga ko’ra, asosan, monologik shaklda bo’ladi. Yozma nutq insonning sun’iy xotirasi bo’lib, u ma’lumotlar va fikrlarni yozuv orqali saqlab qolishga xizmat qiladi. Vaqt o’tishi bilan yozuvda aks ettirish usullari o’zgarib, mukammalashib boradi, biroq maqsad o’zgarmagan. Yozma nutq o’zining tuzilishiga ko’ra hamsuhbatsiz nutq hisoblanadi [9: 117]. Biroq hozirgi kunda Internetdan foydalanish yozma nutqda ham suhbatdoshga ega bo’lish imkonini yaratdi. Darvoqe, og’zaki va yozma nutq xususidagi bilim inson hayoti davomida egallanadi va faqat yozma nutq og’zaki nutqdan farqli ravishda ma’lum bir darajada egallangan bilim va ko’nikmalardan so’nggina amalda qo’llanilishi mumkin. Bundan tashqari, uning boshqacha ko’rinishlari ham mavjud, masalan, kitob o’qish, suhbatlashish, radio tinglash, televizor ko’rish va boshqalar. Ong tashqi olam bilan muloqot qilish natijasida rivojlanadi. Ushbu o’zlashtirilgan ma’lumotlarni nutqiy muloqot orqali aniqlashimiz mumkin. Bu o’rinda shuni aytib o’tish joizki, nutq so’zlovchi subyekt, uning fikri, bilimi va dunyoqarashi haqida ma’lumot beruvchi omildir. Til bo’lsa, barcha ma’lumotlarni aniqlashdagi bir vosita.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, borliqni ko’rib, idrok etib, so’ng fikr yuritiladi va til birliklari orqali nutqiy muloqotda ifoda etiladi. Fikrni til birliklaridan to’g’ri foydalanib ifodalash xabarning adresat tomonidan to’liq idrok etilishiga olib keladi. Chunki adresant tomonidan ifodalangan har qanday so’z nutqiy muloqotga oydinlik kirituvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Predmetning inson ongida turlicha namoyon bo’lishi nafaqat sinonimiyaga, balki fikrlar, nutqlarning xilma-xilligiga sabab bo’ladi. Nutq paydo bo’lib, ravonlanmaganida insoniyat bir-birini tushuna olmagan bo’lar edi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Хрестоматия по истории русского языкознания. – Москва: Высшая школа, 1973.
2. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – Москва: Высшая школа, 1980.
3. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999.
4. Обнорский С.П., Бархударов С.Г. Хрестоматия по истории русского языка. – Ленинград: УЧПЕДГИЗ, 1938.
5. Введенская Л.А., Червинский П.П. Теория и практика русской речи. – Санкт-Петербург: Питер, 2005.
6. Косовский Б.И. Общее языкознание. – Минск: БГУ, 1969.
7. Коляденко Г.С., Сенкевич М.П. Развитие речи с элементами стилистики. – Ленинград: Просвещение, 1981.
8. Норма. Литературный язык. Культура речи / под ред. В.Г. Костомарова и Л.И. Скворцова // Актуальные проблемы культуры речи. – Москва: Наука, 1970.
9. Глухов В., Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. – Москва: АСТ, 2007.
9. Кубрякова Е.Е. Номинативный аспект речевой деятельности. – Москва: Наука, 1986.